

**TURISTLAR UCHUN O'ZBEK MILLIY TAOMLARINI TANLASH
VA BUYURTMA BERISH WEB SAYTINI YARATISH**

Abdullaeva Sarbinaz Duyesenbay qizi

Muhammad-al Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

Sarbinazabdullaeva4546@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning gastronomik sayyoqlik salohiyati va milliy taomlarining xorijiy mehmonlar uchun jozibadorligi tahlil qilingan. Sayyoqlik xizmatlarini raqamlashtirish, xususan, veb-sayt orqali milliy taomlar haqida to'liq ma'lumot berish va buyurtma qilish imkoniyatlarini yaratish g'oyasi ilgari surilgan. Shu maqsadda foydalanuvchi uchun qulay, ikki tilli interfeysga ega, mahalliy oshxonani ommalashtirishga xizmat qiluvchi veb-sayt loyihasi ishlab chiqilgan. Maqolada aynan turistlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan dizayn va funksionallik yondashuvlari asoslab berilgan. Ushbu yondashuv milliy taomlar orqali O'zbekiston turizm brendini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gastronomik turizm, milliy taomlar, veb-sayt, foydalanuvchi interfeysi, raqamli xizmatlar

Kirish

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlardan biri sanaladi. Har yili millionlab xorijiy sayyoqlar mamlakatimizga tashrif buyurishadi. Sayyoohlarni O'zbekistonning boy tarixi, madaniy merosi, mehmono'stligi bilan bir qatorda, milliy oshxonasi ham jalgiladi. O'zbek milliy taomlari – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy boyligidir. Ammo, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida sayyoqlar uchun ushbu taomlarni tanlash va buyurtma berish qulay bo'lgan raqamli platformalarning yo'qligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu loyiha ishi aynan shunday muammolarning yechimiga qaratilgan bo'lib, maqsad – turistlar uchun o'zbek milliy taomlarini tanlash va buyurtma berish imkonini beruvchi qulay va intuitiv web sayt yaratishdan iborat. Ish davomida iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar tahlil qilinadi, mavjud qonunchilik asoslari o'rganiladi hamda ilg'or xorijiy tajriba asosida model ishlab chiqiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar: tizimli tahlil, solishtirma tahlil, statistik tahlil, loyiha dizayn metodologiyasi (Agile, UI/UX prinsiplariga asoslangan prototipash), SWOT tahlil.

Metodologik asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun, "Turizm faoliyati to'g'risida"gi Qonun,

AKTni rivojlantirish strategiyalari, shuningdek, dasturiy ta'minot ishlab chiqish bo'yicha xalqaro standartlar.

Asosiy qism

Turizm infratuzilmasining ajralmas bo'lagi sifatida gastronomik xizmatlar va ularni raqamlashtirish bugungi kunda jahon miqyosida keng ko'lamli e'tibor markazida. O'zbekiston milliy taomlarini tanlash va buyurtma berish imkonini beruvchi veb-sayt yaratish tashabbusi ham xuddi shunday muhim yo'naliishlardan biridir.

Milliy taomlar sayyoohlar uchun nafaqat oziq-ovqat ehtiyojlarini qondiruvchi vosita, balki mahalliy madaniyatni o'rghanishning muhim vositasidir. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, sayyoohlarning 20 foizdan ortig'i yangi madaniyatlarni aynan oshxona orqali tanishadi. O'zbek milliy taomlari (palov, somsa, lag'mon, shurva va boshqalar) dunyoda o'zining mazasi, tayyorlash usullari bilan mashhur. Shu sababli, turistik xizmatlar qatorida milliy oshxona xizmatlari ham raqamlashtirilgan shaklda taqdim etilishi zarur.

Yaratiladigan veb-sayt quyidagi funksional imkoniyatlarga ega bo'ladi:

Taomlar toifalari bo'yicha tasniflash (go'shtli, vegetarian, sharbatlar va boshqalar);

Ingliz, rus va boshqa tillarda interfeys;

Restoranlar va kafe tarmoqlari bilan integratsiya;

Geolokatsiya asosida eng yaqin yetkazib beruvchini ko'rsatish;

O'zbek taomlari tarixi, tarkibi va tayyorlash usuli haqida ma'lumotlar;

Onlayn buyurtma va to'lov tizimi (Uzcard, Visa, Payme va boshqalar);

Foydalanuvchi baholari va sharhlari.

Ushbu loyiha turizm sohasining quyidagi rivojlanish yo'naliishlariga xizmat qiladi:

Ichki va tashqi turizm xizmatlarining raqamlashtirilishi;

O'zbekiston oshxonasining xalqaro brendlashuvi;

Sayyoohlar uchun xizmatlar sifatining oshishi;

Mahalliy tadbirdorlik subyektlari (afeva va restoranlar) daromadining ortishi.

Xalqaro tajribada Yaponianing "Washoku Navigator", Fransyaning "BonApp", Turkiyaning "Yemeksepeti" kabi raqamli gastronomik platformalari misol bo'la oladi. Bu platformalarda foydalanuvchilarga milliy taomlar tavsiya qilinadi, ularning tarkibi tushuntiriladi, restoranlar reytingi beriladi. O'zbekiston uchun ham shunday funksional platformani yaratish milliy gastronomik turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Qonunchilik tahlili va amaliy muammolar

O'zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilingan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”;

“Turizm faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri, 2021);

AKT sohasidagi normativ hujjatlar (masalan, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, 2015).

Mavjud qonunchilikda gastronomik xizmatlarning raqamlashtirilishi haqida alohida bo‘lim yoki ko‘rsatma yo‘q. Turistik platformalar orqali oziq-ovqat buyurtmalarini amalga oshirish bo‘yicha sanitariya, litsenziya, xavfsizlik standartlariga oid normativlar yetarli darajada rivojlanmagan.

Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatiladi:

Sayyoohlar uchun taomlar haqida axborotning yetishmasligi;

Til muammosi: menyular faqat o‘zbek tilida;

Onlayn buyurtma tizimining rivojlanmaganligi;

Internet tarmog‘ining ba’zi hududlarda sustligi;

Restoranlar IT infratuzilmasining past darajasi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, milliy oshxonani raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, sayyoohlik xizmatlari qatorida gastronomik yo‘nalish alohida ko‘rsatilishi kerak.

Xulosa

Yuqorida taqdim etilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, turistlar uchun o‘zbek milliy taomlarini tanlash va buyurtma berish web saytini yaratish g‘oyasi nafaqat dolzarb, balki mamlakat turizm strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bu orqali:

Turizm xizmatlari sifatini oshirish;

Mahalliy tadbirdorlar daromadini ko‘paytirish;

O‘zbekiston milliy oshxonasini dunyo miqyosida targ‘ib qilish;

Zamonaviy AKTni turizmga tatbiq etish mumkin bo‘ladi.

Sayt konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning funksional imkoniyatlari va texnik asoslari loyihaning kelgusi bosqichida amalga oshiriladi. Bu yo‘nalishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro tajribani joriy etish, IT infratuzilmani modernizatsiya qilish asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. “Turizm faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, 2021-yil.
3. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, 2015-yil.
4. UNESCO Tourism Report, 2021.
5. Global Web Food Ordering Platforms Review, 2020.

6. Yaponianing Washoku Navigator tahlili, Gastronomic Studies Journal, 2022.
7. UX Design for Cultural Web Applications – Case Study: French Culinary Sites, 2020.

Izohlar

1. “Turizm faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun – 9-modda: “Turistik xizmatlarning elektron shaklida ko‘rsatilishi”.
2. UNESCO Tourism Report (2021) – 15-bet, “Cultural food as a tool of soft power in national branding”.
3. Washoku Navigator – <https://www.washoku.jp/en/>